

“Qo'ng'irot soda zavodi”ning atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq faoliyati o'rganilmoqda

// 07 May 2025 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qo-ng-irot-soda-zavodi-ning-atrof-muhit-muhofazasi-bilan-bog>



“O'zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da ekologik barqarorlikni oshirish hamda muammolarni hal etish maqsadida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi o'rganilmoqda.



Joriy yilning 5-6-may kunlari Jamiyatning Ekologiya va “yashil” iqtisodiyot bo’limi mas’ullari “Qo’ng’irot soda zavodi” MChJ QKda bo’lishdi.

Mutaxassislar korxonaning Sanitar laboratoriya xodimlari ish sharoitlari, uskunalari, tahlil qilish usullari, laboratoriya jihozlari, atmosfera, suv, tuproq tahlillarini o’rganib chiqishdi.

Asosiy ishlab chiqarish maydonchasida sexlarda chang-gaz tozalash uskunalarining ishlash holati (aspiratsiya tizimlari) va boshqa texnik ko’rsatkichlar ko’zdan kechirildi.



Shu bilan birga, mas'ullar "Barsakelmes" tuz koni va tasarrufidagi hududlarda bo'lib, tuz tozalash agregatining ishlash holati o'rganildi. Konning faoliyati ekologik jihatdan ko'rib chiqildi.

Korxona atrofida hamda "Yangi O'zbekiston" massivida "Yashil belbog'"lar barpo etish ishlari muhokama qilindi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati